

XALQARO HUQUQ NORMALARINI MILLIY QONUNCHILIKKA JORIY ETGAN XORIJIY DAVLATLARNING AMALIY TAJRIBALARI VA UNING NATIJALARI**Qulmatov Farxod Ishdavlat o‘g‘li***O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura huzuridagi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi “Prokurorlik faoliyati” magistratura tinglovchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inson huquqlari sohasida xalqaro huquqiy normalarning milliy qonunchilikka implementatsiya qilishning ilmiy metodologik asoslarini va nazariy jihatlari tahlil qilinib, uni milliy qonunchiligimizga joriy etishning ilmiy va nazariy jihatlari o‘rganib chiqilgan hamda inson huquqlari sohasidagi milliy qonunchilikka xalqaro huquqiy normalarni kiritish muammosining dolzarbligini aniqlash, milliy qonunlarning xalqaro standartlarga muvofiqlik darajasini aniqlash hamda xalqaro normalarni amalga oshirishning nazariy asoslarini tahlil qilgan.*

Kalit so‘zlar: *implementatsiya qilish, xorijiy davlatlarning sud tizimlari, sud pretsedenti, ixtisoslashtirilgan sudlar.*

Har qanday huquqning manbasi huquq normasining tashqi ifoda shakli bo‘lib hisoblanadi. Tarixan huquq manbasining uchta shakli mavjud: odat normalari, normativ-huquqiy hujjat, sud pretsedentlari. Odat huquqi mavjudligining tarixan birinchi shakli, hozirgi vaqtda huquqning asosiy manbai emas. U Afrika qit‘asi mamlakatlarida huquqning asosiy manbai sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolgan. Odat normalari asosan uzoq vaqt mobaynida doimiy takrorlanib kelish natijasida, ijtimoiy munosabatalarni tor doirada tartibga soluvchi, umummajburiy bo‘lgan yurish-turish qoidalari hisoblanadi.

Xalqaro xususiy huquq manbalari o‘zining kelib chiqishi shakliga ko‘ra ikki tomonlamali xususiyatga ega. Bir tomondan, davlatning ichki manbalari (normativ hujjatlar, sud pretsedentlari va odat normalari), ikkinchi tomondan, xalqaro manbalar (xalqaro shartnomalar va xalqaro odatlar) mavjud. Har bir davlat xalqaro xususiy huquq manbalari doirasini mustaqil ravishda belgilaydi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro xususiy huquqning manbalari o‘zining milliy qonunchiligi bilan, odat normalari bilan, xalqaro odatlar va xalqaro shartnomalar bilan ifodalaydi. O‘zbekiston Respublikasida pretsedent xalqaro xususiy huquqning manbai sifatida qaralmaydi. Asosiy dalil shundaki, sud qonunni yaratmaydi, balki unga amal qiladi, ya‘ni qonunni qo‘llaydi. O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni, Fuqarolik protsessual kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeksi va boshqa sud yurituviga oid bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarda yuqori va quyi turuvchi sud instansiyalari sud amaliyoti masalalari bo‘yicha faqat tushuntirishlar berish huquqiga ega. Xalqaro xususiy huquqning manbalari xalqaro va milliy huquqiy hujjatlar hamda shartnomalar bo‘lganligi sababli ularning yuridik kuchi, xalqaro va ichki huquq o‘rtasidagi

munosabatlar haqidagi savolga javob beradi. Xalqaro huquqning manbalari bilan ichki qonunchilikning farqi shundaki, xalqaro huquq davlatlararo birgalikda yaratilgan norma hisoblanib, milliy qonunchilik esa davlat hayotidagi u yoki bu ijtimoiy munosabatni tartibga solishda ruxsat berish faoliyatining mahsulidan iborat bo‘ladi.

Shu bilan birga, xalqaro huquq va ichki huquq bir-biri bilan faol hamkorlik qiladi. Bunday o‘zaro hamkorlik xalqaro me‘yorlarni amalga oshirishda asosan milliy miqyosda amalga oshirilishi obektiv faktiga asoslanadi. Shuningdek, har bir davlat o‘z zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish tamoyili (pacta sunt servanda) talabidan kelib chiqib, bunday amalga oshirish tartibini mustaqil ravishda belgilaydi. Aynan milliy qonunchilik pirovard natijada uning (ichki) normalari va xalqaro-huquqiy normalarining o‘zaro bog‘liqligini belgilaydi.

Angliya va Uelsda sud tizimi va sudlarning turli tiplari ko‘p asrlar davomida shakllanib kelgan. Angliya va Uels o‘rta asrlarda Angliyada paydo bo‘lgan umumiy huquq tamoyillariga asoslangan yagona sud tizimiga ega. Bundan tashqari, Shotlandiya va Shimoliy Irlandiya ham o‘z sud tizimiga ega. Shimoliy Irlandiyadagi sud tizimi Angliya va Uelsnikiga juda o‘xshaydi, Shotlandiya sud tizimi esa umumiy huquq va fuqarolik huquqi tizimlarining elementlarini birlashtirgan gibril modeldir. Angliya va Uelsda aksariyat fuqarolik ishlari okrug sudida ko‘riladi. Fuqarolik nizolarining alohida turlarini, masalan, soliqqa tortish va ishga joylashish, immigratsiya va boshpana masalalarini hal qilish uchun ko‘plab ixtisoslashtirilgan sudlar yaratilgan.

Hozirgi kunda Angliyada sud tizimi quyidagilardan iborat:

- 1) Oliy sud;
- 2) Yuqori sud;
- 3) Apellyatsiya sudi;
- 4) Lordlar palatasi;
- 5) Crown (Jinoyat) sudi;
- 6) Magistrat sudlari;
- 7) Mahalliy sudlar¹¹.

Oliy sud. Birlashgan Qirollikning Oliy sudi Buyuk Britaniyadagi barcha fuqarolik ishlari va Angliya, Uels va Shimoliy Irlandiyada kelib chiqadigan jinoiy ishlar bo‘yicha yakuniy apellyatsiya sudi hisoblanadi. Oliy sud 12 nafar doimiy sudyadan iborat bo‘lib, ular mustaqil komissiya tavsiyasiga ko‘ra vazirlar mahkamasi a‘zosi Lord kansler tomonidan tayinlanadi. 2009-yilda Oliy sud tashkil etilishidan oldin yakuniy apellyatsiyalar Lordlar palatasining Apellyatsiya qo‘mitasi (odatda “qonun lordlari” deb ataladi) tomonidan yuqori palata a‘zolari sifatida tayinlangan 12 nafar oliy sudyalardan iborat hay‘at tomonidan ko‘rib chiqilar edi. Institutsiyaviy jihatdan alohida Oliy sudni tashkil etishning asosiy turtki bo‘lib, hokimiyatning qonun chiqaruvchi va sud tarmoqlari o‘rtasida vakolatlarining aniqroq taqsimlanishini ta‘minlash bo‘ldi.

¹¹ 2003 yilda qabul qilingan (oxirgi yangilanish 04.01.2022) “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 1-moddasi.

Yuqori sud. Yuqori sud 1873—1875-yillardagi “Sud islohotlari to‘g‘risida”gi Qonunga asosan tashkil etilgan. Ushbu sud, yuqori darajadagi fuqarolik da‘volari bo‘yicha birinchi instansiya sudi sifatida ham, fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha apellyatsiya sudi sifatida ham ishlaydi. Yuqori sud birinchi instansiyada jiddiyroq va murakkab fuqarolik va oilaviy ishlarni ham ko‘radi. Yuqori sud uch bo‘limdan iborat:

- Qirolicha boshchiligidagi hay‘at a‘zolar sudi. Unga Lord bosh sudya rahbarlik qiladi. Qirolicha boshchiligidagi hay‘at a‘zolar sudi Yuqori sudning uchta bo‘linmasining eng kattasidir. Uning tarkibiga bir qator ixtisoslashtirilgan sudlar: Admirallik, Savdosotiq, Tijorat, Texnologiya va Qurilish va Ma‘muriy sudlar kiradi. Mazkur bo‘lim fuqarolik ishlarining keng spektrini (shartnoma shartlari buzilishi va tuhmat qilish natijasida yetkazilgan zarami qoplash haqidagi da‘volar, savdo nizolari va admiralteystvoning ishlari) ko‘rib chiqadi;

- Kanslerlik bo‘limi. Unga Lord-kansler rahbarlik qiladi, biroq, bo‘lim ishiga asosiy rahbarlikni vitse-kansler amalga oshiradi. Ushbu bo‘lim mulk munosabatlari, shu jumladan, mulkdor o‘limidan keyin mulkni boshqarish, vasiyatnomalarni sharhlash, Patent, bankrotlik va aksiyadorlik jamiyatlar faoliyati bilan bog‘liq ishlarni ko‘rib chiqadi;

- “Oilaviy ishlarni ko‘ruvchi sud. Rais rahbarligida mazkur bo‘lim nikohni bekor qilish ishlari, oilaviy munosabatlar, vasiylik va homiylik, farzandlikka olish masalalari, nizosiz tartibdagi vasiyatnomalar hamda vasiyatnomalar qoldirmasdan vafot etgan mulkdorlarning molmulkini bo‘lish bilan shug‘ullanadi”¹². Yuqori sud bir qator sudlar, tribunallar, organlar va davlat lavozimlarini egallayotgan ayrim shaxslarga, jumladan, hukumat vazirlariga nisbatan nazorat funksiyalarini ham amalga oshiradi. Ta‘kidlash joizki, Yuqori sud birinchi instansiya sudi sifatida ham, apellyatsiya instansiyasi sudi sifatida ham o‘z faoliyatini amalga oshirishi mumkin. Agar birinchi instansiyada sudya protsessni yakka tartibda olib boradigan bo‘lsa, apellyatsiya instansiyasi sifatida Yuqori sud ishlarni ikki yoki uch sudyadan iborat tarkibda ko‘rib chiqadi. Oila sudi 2014-yilda tashkil etilgan. U milliy yurisdiksiyaga ega va barcha darajadagi oilaviy sudlarni bir sudda birlashtirgan.

Oilaviy sud tizimi oilaviy nizolar, kelishmovchiliklar yoki muammolar yuzaga kelsa, ularga ushbu muammolarni tez va oson hal qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, tomonlar o‘z nizolarini suddan tashqari, masalan, vositachilik yo‘li bilan hal qilishga da‘vat etiladi. Sudyalar oilaviy nizolarning holatlarini kamroq qarama-qarshiliklarga olib kelish uchun harakat qilishadi va tinglovlar ko‘pincha norasmiy bo‘lishi mumkin¹³.

¹² V.Y. Kulakova. PhD (Huquq), Fuqarolik va ma‘muriy protsessual kafedra dotsenti. Kutafin nomidagi Moskva davlat yuridik universiteti. “Angliyada Oilaviy sudlar” nomli Maqola. 2017.

¹³ V.Y. Kulakova. PhD (Huquq), Fuqarolik va ma‘muriy protsessual kafedra dotsenti. Kutafin nomidagi Moskva davlat yuridik universiteti. “Angliyada Oilaviy sudlar” nomli Maqola. 2017.

Oila huquqi asosan ikki turdagi ishlarni o'z ichiga oladi va oilaviy tuman sudlari quyidagi ishlarni ko'radi: *xususiy va jamoat ishlari*.

Xususiy ishlar - bu ota-onalar bilan bog'liq bo'lgan va ularning farzandlari bilan bog'liq bo'lgan nizolar, masalan, ajralishlar, bolalar kim bilan yashashi, kim bilan uchrashishi, qayerda maktabga borishi yoki hatto ulardan biri bilan chet elga yashash uchun ko'chib o'tishi mumkinligi.

Jamoat ishlari – bu mahalliy hokimiyat organlari bolalarni ota-onalari qaramog'idan olib qo'yish uchun choralar qo'llaniladigan ishlardir. Bu kabi ishlar bilan oila sudyasi shug'ullanadi.

Lordlar palatasi. Lordlar palatasi ingliz sud tizimining oliy instansiyasi bo'lib, parlamentning yuqori palatasi funksiyasini bajarish bilan birga, jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha apellatsiya instansiyasi funksiyalarini amalga oshiradi. Ko'rinib turibdiki, uning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u bir vaqtning o'zida qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatlarini mujassam qiladi. Muayyan darajada u ijro etuvchi hokimiyatni ham mujassam qilishi mumkin, chunki uning raisi Lord-kansler hisoblanadi, u esa parlament yuqori palatasining spikeri, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining a'zosi hamda sudlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash funksiyalarini bajaradigan ijro etuvchi organning — Departamentning rahbari bo'ladi¹⁴.

Apellatsiya sudi. Apellyatsiya sudi Oliy sudning Yuqori va okrug sudlari va ko'plab sudlarning barcha shikoyatlarini ko'rib chiqadigan bo'linmasidir. Sud tarkibiga Oliy sudning uch yoki besh nafar sudyasi kiradi. Sudya qarama-qarshi tomonlarning dalillarini tinglaydi va dastlabki sud majlisida qonunda xatolikka yo'l qo'yilganmi yoki biron bir muhim fakt e'tibordan chetda qolganmi degan qarorga keladi. Apellyatsiya sudi fuqarolik va jinoiy ishlarni ko'rib chiqadi¹⁵.

Magistrat sudlari XIV asrda tashkil topgan bo'lib, sud tizimining asosiy bo'g'inini tashkil etadi. Hozirgi kunda magistrat sudining faoliyati 1980-yildagi “Magistrat sudlari to'g'risida”gi Qonun bilan tartibga solinadi. Magistrat sudlari faoliyati tashkiliy-huquqiy asoslarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, professional yurist bo'lmagan shaxs ham sudya-magistrat bo'lishi mumkin. Ular yarashtiruvchi sudyalarda deb ham ataladi. Oxirgi paytlarda magistrat-sudyalarning umumiy soni 30 mingga yaqinlashdi. Mazkur sudlar, odatda, ishlarni uch nafar sudyadan iborat bo'lgan hay'atlarda ko'rib chiqadilar, huquqiy masalalar bo'yicha ularga yuridik ma'lumotga ega bo'lgan sudyalik klerklar maslahatlar beradi¹⁶.

Mahalliy sudlar. Ushbu sudlar XIX asr o'rtasida (1846-yil) ta'sis etilgan va fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlovning asosiy organlari hisoblanadi. Mazkur sudlar

¹⁴ К.Ф. Гуценко, Л.В. Головкин, Б.А. Филимонов. Уголовный процесс западных государств. М., “Зерцало-М”, 2001, стр. 71.

¹⁵ Rustamboyev M.H., Tuxtasheva U.A. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T.: “Ilm ziyo”, 2012. — 720 bet.

¹⁶ Rustamboyev M.H., Tuxtasheva U.A. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T.: “Ilm ziyo”, 2012. — 720 bet.

Angliya va Uelsda eng quyi sud hisoblanadi. Har yili mahalliy sudlar tomonidan 1,5 mln yaqin sud ishlari ko'rib chiqiladi, lekin mazkur sudlar faqat murakkab bo'lmagan ishlarni ko'radilar. Murakkab ishlar Yuqori sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Mahalliy sudlarning faoliyati 1984-yildagi «Mahalliy sudlar to'g'risida»gi Qonun bilan tartibga solinadi. Mahalliy sudlariga okrug yoki tuman sudyalari rahbarlik qiladi. Okrug sudlari kattaroq va qiyinroq ishlarni ko'rib chiqadilar, shuningdek, tuman sudyalarining qarorlari ustidan kelib tushadigan shikoyatlarni ko'radilar. Mazkur Qonunning 15-moddasiga asosan, fuqarolik munosabatlaridan kelib chiqadigan ishlarni ko'rib chiqadi.

Ko'rib turganimizdek, yagona sud tizimining yo'qligi ingliz sud tizimining o'ziga xos xususiyatidir. Angliyaning turli sudlari har xil tarkibiy va tashkiliy holatda bo'ladi. Ulaming ustida o'ziga xos sud rahbariyati rolini o'ynaydigan, sudlar va sudyalar faoliyatini isloh qilish bo'yicha yagona ko'rsatmalar beradigan ma'muriy markaz mavjud emas. Hisoblanadiki, ingliz sudyalari faqat bitta xo'jayinni huquqni tan oladilar¹⁷.

Dunyoning taraqqiy etgan davlatlarining ilg'or tajribasini chuqur o'rganish asosida mamlakatimizda sud tizimini yanada isloh qilib uni takomillashtirishimiz mumkin. Ya'ni, zamonaviy dunyoda sud tizimini qurishni bir qancha modellari mavjud. Ko'plab davlatlarda, xususan, **Buyuk Britaniya**da ixtisoslashtirilgan sudlarning tashkil etilishi, ishni ko'rib chiqishni samaradorligini oshirib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarda ishlash hamda qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalani huquqlariga ega ekanligi belgilangan. Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakilining (Ombudsmanning) fuqarolarning mehnat huquqlarini muhofaza qilish va qonun buzilish holatlarini bartaraf etish bo'yicha faoliyati muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Ombudsmanga 2020-yilda fuqarolarning mehnat huquqlarini ta'minlash yuzasidan 1046 ta murojaat kelib tushgan. Ombudsman tomonidan mehnat munosabatlariga oid murojaatlar tahlilidan kelib chiqib, uni yanada takomillashtirish hamda mehnat qonunchiligi buzilish holatlarini oldini olishga ehtiyoj paydo bo'lmoqda.

Buning uchun fuqarolarning mehnat huquqlari ta'minlanishida, birinchi navbatda, joylardagi nazorat qiluvchi davlat organlarning mehnat qonunchiligini ta'minlanish borasidagi faoliyatini qayta ko'rib chiqish va kuchaytirish, ish beruvchi va xodimlar o'rtasida mehnat munosabatlariga oid nizolarni hal qilish yuzasidan samarali mexanizmlarni mehnat shartnomalarida ko'rsatib o'tish hamda ish beruvchining xodimga nisbatan mehnat qonunchiligini buzgan holatlarda unga nisbatan javobgarlik choralari kuchaytirish, fuqarolik sudlari, hakamlik sudlari, mediatorlar, mehnat inspektorlari va boshqa mehnat munosabatlariga oid nizolar bilan shug'ullanuvchi idoralar xodimlarining mas'ulligini oshirish lozim. Shu o'rinda xorijiy davlatlar tajribasiga tayanadigan bo'lsak, sud tizimini qaytadan tashkil etilishi zamon talablaridan

¹⁷ А.К. Романов. Правовая система Англии. Учебное пособие. М., «Дело», 2000, стр. 244.

biri hisoblanadi. Hakamlik sudlari yoki mediator institutlarini jamlagan holatda markazlashgan yangi sud tizimini yaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Buyuk Britaniyada 1998-yilda protsessual huquqni isloh qilishning boshlanishi bo‘lgan ingliz fuqarolik protsessual qoidalari qabul qilingandan so‘ng xususiy huquqiy nizolar bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirishni huquqiy tartibga solish doimiy ravishda takomillashtirildi. Bu borada muhim qadam 2010-yilda oila sohasida yuzaga keladigan muammolarni sud tomonidan ko‘rib chiqish va hal qilish tartibini belgilab beruvchi “Oilaviy ishlar bo‘yicha ish yuritish qoidalari” qabul qilindi¹⁸.

2003-yilda qabul qilingan “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonun qoidalariga muvofiq 2014-yil 22-aprelda Yuqori sud tarkibida Oila bo‘limi tashkil etildi. Shu vaqtgacha, oilaviy sud masalalari turli sudlar takibida, xususan okrug va magistratura sudlarida ko‘rib chiqilgan edi.

Oilaviy ishlar bo‘yicha ish yuritish qoidalarining 1.1-bandiga ko‘ra, ushbu Qonun barcha oilaviy ishlar bo‘yicha sud ishlarini yuritish masalalarini tartibga soluvchi norma vazifasini bajarib kelmoqda. Oilaviy nizolarni tashkil etuvchi va ushbu sudning vakolatiga kiradigan ishlar doirasi nikoh, oila, onalik va bolalik bilan bog‘liq turli xil masalalarni tartibga soluvchi hujjatlar asosida belgilanadi.

Ko‘rib turganimizdek, Buyuk Britaniyada ixtisoslashgan Oila sudi mavjud. Mazkur sud oilaviy nizolarni professional darajada hal etishga yordam berib kelmoqda.

Shu o‘rinda, mamlakatimizda fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan ko‘rib chiqilgan 2019-2020-yillardagi statistikaga to‘xtalamiz. 2019-yil mobaynida fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan **188 282 ta** ish ko‘rib chiqilgan. Shulardan, hal qiluv qarori qabul qilingan da‘vo tartibidagi **134 893 ta** fuqarolik ishlaridan **37 104 tasi** nikohdan ajratish, **2 806 tasi** otalikni belgilash tashkil etgan. Shuningdek, 2020-yil mobaynida fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan **39 466 tasi** nikohdan ajratish, **2349 tasi** otalikni belgilashga oid ishlar ko‘rib chiqilgan. Bu shuni anglatadiki, hozirgi kunda oilaviy nizolar keskin oshib bormoqda. Shu sababli ixtisoslashgan sudlarni tashkil etish zamon talablaridan biridir.

Shuni ham aytishimiz mumkinki, ba‘zi sohalarda sud tizimini ixtisoslashuvi nizolarni yanada professional tarzda ko‘rib chiqish va hal qilish uchun katta imkoniyatlarni yaratadi. Yangi sud tizimlarining ochilishi sudyalik lavozimlariga shaxslarga nisbatan yangi talablarni qo‘yishni nazarda tutadi. Shunday qilib, yshga, ish stajiga va lavozimga tayinlash tartibiga qo‘yiladigan talablarga qo‘shimcha ravishda, ixtisoslashuvga mo‘keladigan qo‘shimcha malaka ega bo‘lish nazarda tutiladi.

Sud hokimiyati davlat hokimiyatining “uchinchi” tarmog‘i vazifasini bajaradi. Shu sababli Sud hokimiyatining ma‘lum organlar tizimi – sud tizimida shakllanishi

¹⁸ V.Y. Kulakova. PhD (Huquq), Fuqarolik va ma‘muriy protsessual kafedra dotsenti. Kutafin nomidagi Moskva davlat yuridik universiteti. “Angliyada Oilaviy sudlar” nomli Maqola. 2017

uchun huquqiy davlatchilik barpo etish yoʻlida koʻp asrlik ilgʻor taraqqiyot kerak boʻldi. Shu oʻrinda huquqshunos olim A.F.Izvarina: “Sud tizimi murakkab ijtimoiy hodisadir, shuning uchun uning tushunchasi ham murakkab. Sud tizimiga turli nuqtai nazardan qarash mumkin; tashkil etilishi, faoliyati, amalga oshirilishi va jamiyatdagi roli nuqtai nazaridan”. Xaqiqatdan ham mukammal va zamon talablariga javob beradigan sud tizimini yaratilishi mamlakatni kelajagini va uning istiqbollari belgilab beradi. Bugungi kunda zamonaviy rivojlangan sud tizimlari ikkita asosiy huquqiy oila – romano-german va anglo-saksonlar doirasida rivojlanganini aniq ayta olamiz. Garchi romano-german tili qadimgi va undan koʻp boʻlsa ham dunyoning huquqiy tizimlarini qamrab olishda keng, ammo u anglo-sakson umumiy huquq oilasida shakllangan, aniqrogʻi, uning shakllanish jarayoni XI-asrning ikkinchi yarmida boshlangan boʻlsa, kontinental Yevropada bu bir necha asrlar oʻtib sodir boʻldi.

Anglo-sakson modelining vatani Angliyada sud tizimining asosini quyidagi qoidalar tashkil etdi:

- ✓ sudning huquq yaratuvchilik rolini va sud pretsedentini huquq manbai sifatida tan olish;
- ✓ raqobatbardoshlik, unda sud koʻproq eng kam passiv va faqat tomonlar tomonidan protsessual normalarga rioya etilishini nazorat qiladi;
- ✓ sudyalarni saylashning keng amaliyoti.

Ushbu qoidalarga bitta muhim xususiyatni anglashimiz mumkin yaʼni, yagona sud tizimining yoʻqligiga qaramasdan mazkur sud tizimi keng rivojlanib, koʻplab davlatlar oʻz sud tizimlarini qayta koʻrib chiqishiga sabab boʻlmoqda. Hozirgi ingliz sud tizimi 900 yildan ortiq evolyutsiyasi natijasidir. Huquqshunos olim A.K. Romanov: “Rivojlanish koʻp jihatdan, muayyan sharoitlar bosimi ostida, lekin yuqoridan pastga emas, balki pastdan yuqoriga va uning quyi strukturaviy shakllanishlari shuningdek, tarkibiy qismlarining rivojlanishiga zaʼmin yaratdi”, - degan gaplarini bildira olamiz. Mazkur sud tizim tashkil etilish tamoyillari, faoliyat usullari, hal etilishi lozim boʻlgan vazifalari jihatidan ancha zamonaviydir.

R. Devid taʼkidlaganidek: “Angliyada sud tizim ikki qismga boʻlingan: Oliy sud tomonidan amalga oshiriladigan odil sudlov va koʻp sonli quyi sudlar va kvazi-yuridik organlar tomonidan amalga oshiriladigan quyi boʻgʻin odil sudlaridir¹⁹.”

Angliya sud tizimining alohida qismlari koʻpincha turli sabablarga koʻra qayta tashkil etilgan. Bu oʻsha davr ehtiyojlariga javob beradigan yechimlarni topish imkonini berdi, biroq oʻzining asrlar davomida rivojlanishi davomida ingliz sudlari oʻzining dastlabki tashkiliy birligi va yaxlitligini saqlab qoldi. Angliyada butun sud tizimining tarkibiy qismlari: Lordlar palatasi eng yuqori darajani egallaydi, undan keyin Oliy sud, Apellyatsiya sudlari, Yuqori sud, Jinoyat sudi va quyi sudlar okrug sudlari va

¹⁹ Давид Р., Жоффре-Спинози К. Основные правовые системы современности. М., 1997. 249 с.

magistratura sudlaridan iboratligini ko‘rib chiqdik. Ushbu tuzilish mamlakatimizning sud tizimiga ham o‘xshab ketadi.

Tadqiqot ishimizda Angliyadan tashqari, ko‘rib chiqilayotgan model Avstraliya, Kanada, Yangi Zelandiya va bir qator mamlakatlarda kuzatiladi. Yana shuni ham atyishimiz mumkinki, AQSh sud hokimiyatining tashkil etilishi ko‘plab olimlarning alohida o‘rganishiga qiziqish uyg‘otdi. Mazkur tizimning tashkil etilishi (federa va davlat sudlari) vertikal sud tizimini anglatadi. Federal va davlat sudlarining yurisdiksiyasi, birinchi navbatda, federal qonun yoki shtat qonuniga bo‘ysunishi nuqtai nazaridan ham farqlandi.

Huquqshunos olim R. Devid ta’kidlaydi: “AQSH sud tizimini Angliya bilan solishtirganda, Qo‘shma Shtatlarda sud tizimining markazlashmaganligi bilan izohlanadi va eng asosiy sababi federal va shtat sudlaridan iboratligidir. Angliyada Sud hokimiyatining Londonda markazlashishi ingliz umumiy huquqining rivojlanishiga hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qildi”. Sud tizimining anglo-sakson modeli bugungi dunyoda juda muhimligi o‘z tasdig‘ini topdi. Aynan ingliz sudlari Anglo-Sakson huquqiy oilasi, umumiy huquq tizimini, Angliya-Amerika huquqini shakllantirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Апраксин Пьер - «Международное гуманитарное право и право прав человека: сходства, различия, взаимодополняемость» статья. 23-24 апрель 1997;
2. Международные документы по правам человека.
3. Права человека: Учебник/Отв. ред.Е.А.Лукашева. М.,1999. С.35. va A.X.Saidov – “Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq” darslik, T.: 2004.
4. Бори Ф. Возникновение и развитие международного гуманитарного права. 2 изд., испр. – М., 1994;
5. Всеобщая декларация прав человека: 1948-1998. М.,1998. С.8. va A.X.Saidov – “Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq” darslik, T.: 2004-yil;
6. Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi 10.12.1948 yil;
7. “Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bo‘yicha” Yevropa konvensiyasi 1950-yil;
8. “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt” 1966-yil;
9. FA Ibrohimov Ta’lim muassasalarida huquqiy ta’lim-tarbiyaning zarurati. - Academic Research in Educational Sciences, 2020-yil;
10. Inson huquqlari umumiy nazariyasi: IIV tizimidagi ta’lim muassasalari tinglovchi va kursantlari, shuningdek huquqni muhofaza etuvchi organlar xodimlari uchun darslik. — T., 2022.;
11. Саидов А.Х..Международное право прав человека: Учебное пособие / Отв.ред. акад. Б.Н. Топорнин. М., 2022. - С. 80;

- 12.** Образование в области прав человека: национальный и зарубежный опыт / Отв. изд. А.Х. Саидов. - Ташкент: Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека, 2021.;
- 13.** Давид Р., Жоффре-Спинози К. Основные правовые системы современности. М., 1997. 249 с.
- 14.** V.Y. Kulakova. PhD (Huquq), Fuqarolik va ma'muriy protsessual kafedra dotsenti. Kutafin nomidagi Moskva davlat yuridik universiteti. "Angliyada Oilaviy sudlar" nomli Maqola. 2017;
- 15.** Rustamboyev M.H., Tuxtasheva U.A. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T.: "Ilm ziyo", 2012;
- 16.** А.К. Романов. Правовая система Англии. Учебное пособие. М., "Дело", 2000;
- 17.** Давид Р., Жоффре-Спинози К. Основные правовые системы современности. М., 1997.
- 18.** К.Ф. Гуценко, Л.В. Головкин, Б.А. Филимонов. Уголовный процесс западных государств. М., "Зерцало-М", 2001;